

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING "KONI LAZZAT XONI NE'MAT" ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING "AL-KASHSHAF" ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O'RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A'ZAM MEROSI: BAG'RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA'LIMDA INSONPARVARLIK G'OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: "SHUM BOLA" ASARINING O'ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO'ZLASHUV NUTQIDA SO'Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE'RIYATINING G'OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CONCEPTUAL APPROACHES TO THE LEGAL PROTECTION OF A WITNESS'S STATUS

Mukimbayev Otabek Sattarovich

Head of the Organizational Department,

Sirdaryo Regional Department of Internal Affairs;

Independent Researcher, Academy of the Ministry of Internal Affairs

E-mail: info@sirviib.uz

Abstract. The article examines the development of the procedural status of witnesses in Uzbekistan following independence within the framework of judicial and legal reforms. It analyzes the legal foundations, including the revised Constitution, the Criminal Procedure Code, and the Law "On the Protection of Victims, Witnesses, and Other Participants in Criminal Proceedings." Special emphasis is placed on new guarantees of witness rights, the introduction of the "witness's lawyer" institution, as well as challenges in the practical implementation of witness protection mechanisms and their compliance with international human rights standards.

Keywords: witness, procedural status, Constitution, Criminal Procedure Code, human rights, legal assistance, witness protection.

GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Mukimbayev Otabek Sattarovich

Sirdaryo viloyati IIB Tashkiliy boshqarma boshlig'i,

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi sud-huquq islohotlari jarayonida guvohning protsessual maqomining takomillashishi tahlil qilinadi. Konstitutsiyaning yangi tahriri, Jinoyat-protsessual kodeksi va "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun kabi huquqiy asoslar sharhlanib, guvohning huquqlari va burchlarini ta'minlashga qaratilgan yangi kafolatlar yoritib berilgan. Shuningdek, guvoh huquqlarini himoya qilishda uchrayotgan muammolar va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: guvoh, protsessual maqom, Konstitutsiya, Jinoyat-protsessual kodeks, inson huquqlari, advokat yordami, guvohlar himoyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N46>

Kirish. Zamonaviy demokratik jamiyatda adolatli sud muhokamasini ta'minlash jarayonida guvoh institutining roli va ahamiyatini oshirishga qaratilgan tizim shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida baholanmoqda. Biroq, guvohning protsessual maqomini belgilovchi huquqiy me'yorlarning rivojlanishi va takomillashtirilishi jarayonida bir qator nazariy va amaliy muammolar mavjudligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Mustaqillikka erishilganidan so'ng mamlakatning barcha sohalarida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, sud-huquq tizimidagi islohotlar jarayonida guvoh shaxsiga bo'lgan munosabatda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Zamonaviy jamiyatda

inson huquq va erkinliklariga munosabatni tubdan qayta ko'rib chiqish jarayonida guvohning burch va huquqlari, ularni ta'minlashga qaratilgan turli kafolatlar bilan bir qatorda, uni jinoyat protsessining to'laqonli ishtirokchisi sifatida baholash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqaroning asosiy huquq hamda erkinliklarini mustahkamlashda tarixiy ahamiyat kasb etdi. Konstitutsiyaning bir qator moddalari guvohning protsessual holati uchun asosiy huquqiy baza vazifasini bajaradi. Xususan, unda barcha fuqarolarning teng huquq va erkinliklarga egaligi, qonun oldida tengligi, shaxsiy erkinlik hamda daxlsizlik huquqlari mustahkamlangan[1].

Biroq, 1992-yilgi Konstitutsiyaning dastlabki matnida guvoh institutining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, guvohning yakka o'zini olib kelmaslik huquqi va malakali yuridik yordam olish huquqi yetarli darajada konkretlashtirilmagan edi. Bu esa amaliyotda guvohning huquqlarini himoya qilishda bir qator muammolarga sabab bo'ldi.

2023-yil 30-aprel kuni qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri esa mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanishi mumkin. Yangi Konstitutsiyada hech kimning o'ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi hamda har bir shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi[2].

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari, shuningdek, xalqaro shartnomalarini milliy huquqiy tizimning ajralmas qismi sifatida e'tirof etishi guvoh institutining rivojlanishida muhim omil bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi, shaxsni qiynoqqa solish, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor qilishni taqiqlash, shuningdek, shaxsiy va oilaviy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashishni man etish kabi asosiy qoidalarni belgiladi[3].

1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt (O'zbekiston tomonidan 1995-yil 28-dekabrda ratifikatsiya qilingan) ham insonning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi[4].

Lekin, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 14-moddasida nazarda tutilgan ayblanuvchining unga qarshi ko'rsatuv berayotgan guvohlarni so'roq qilish yoki bevosita so'roq qilinishida ishtirok etish huquqi hozirgi O'zbekiston qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri o'xshash shaklda aks etmagani xalqaro standartlarga muvofiqlik masalasida muayyan tafovutlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda jinoyat sudlovi tizimida guvohning ishtiroki adolatli sudlovni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Guvohning ko'rsatmalari ko'p hollarda jinoyat ishining hal qiluvchi dalili sifatida namoyon bo'ladi, shu bois uning huquqiy maqomini mustahkamlash va samarali himoya mexanizmlarini yaratish davlatning huquqiy siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, guvohning huquqiy maqomi faqat protsessual majburiyatlar majmuasi emas, balki huquqiy kafolatlar bilan ta'minlangan mustaqil huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi [5].

Jinoyat protsessi nazariyasida guvoh huquqiy munosabatlarning mustaqil subyekti sifatida ko'riladi. Mazkur masala yuzasidan G.Fletcher guvohning jinoyat sudlovidagi o'rnini tahlil qilib, uni "adolat mexanizmini harakatga keltiruvchi axborot manbai" deb ta'riflaydi [6]. Shu bilan birga, A.Ashworth guvohning protsessual maqomi uning shaxsiy daxlsizligi, sha'ni va

qadr-qimmatini himoya qilish kafolatlari bilan mustahkamlanishi lozimligini ta'kidlaydi [7]. Bu fikrlar guvohni faqat dalil beruvchi shaxs emas, balki huquqiy muhofazaga muhtoj subyekt sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

Xalqaro huquq normalari ham guvohlarni himoya qilishni inson huquqlarini ta'minlashning ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Masalan, B. Swart xalqaro jinoyat sudlovida guvohlarni himoya qilish institutlarini tahlil qilib, ularning xavfsizligini ta'minlash adolatli sud muhokamasining sharti ekanini qayd etadi [8]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, guvohning huquqiy maqomi faqat milliy qonunchilik doirasida emas, balki xalqaro standartlar asosida ham shakllantirilishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlarda guvohlarni himoya qilishning nazariy asoslari keng yoritilgan. M. Bohlander guvohlarni himoya qilish mexanizmlari jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [9]. Uning fikricha, guvoh o'zini xavfsiz his etmagan taqdirda, haqqoniy va to'liq ko'rsatma berish ehtimoli pasayadi. Shu bois guvohning huquqiy maqomini himoya qilish jinoyat sudlovining ishonchliligi bilan uzviy bog'liqdir.

Protsessual huquq nazariyasida guvohning maqomi uning huquq va majburiyatlari o'rtasidagi muvozanat orqali belgilanadi. R. Jackson guvohning huquqlari va uning davlat oldidagi protsessual burchlari o'rtasida mutanosiblik saqlanishi kerakligini qayd etadi [10]. Bu muvozanat guvohni sud jarayonida faol ishtirokchi sifatida tan olish bilan birga, uning shaxsiy manfaatlarini muhofaza qilishni ham nazarda tutadi.

Jinoyat sudlovida guvohlarni himoya qilish muammosi inson huquqlari konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq. L.Zedner jinoyat protsessida xavfsizlik va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilib, guvohlarni himoya qilish davlatning ijtimoiy majburiyati ekanini ta'kidlaydi [11]. Bu nuqtai nazar guvohlarni himoya qilishni faqat protsessual mexanizm emas, balki konstitutsiyaviy kafolat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, J.Spencer guvohlarni himoya qilish institutlarining samaradorligi ularning huquqiy aniqligi va amaliy ishlash mexanizmlariga bog'liqligini qayd etadi [12]. Agar qonun normalari deklarativ xarakterda qolib ketsa, guvohning huquqiy maqomi real himoyadan mahrum bo'ladi. Demak, guvohning huquqiy maqomini himoya qilish faqat normativ baza emas, balki amaliy mexanizmlarni ham talab etadi.

Guvohning huquqiy maqomini himoya qilish masalasi zamonaviy jinoyat sudlovining markaziy muammolaridan biri sifatida shakllandi. Jinoyat protsessida guvoh ko'rsatmasi ko'p hollarda dalillar tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Shu bois guvohning xavfsizligini ta'minlash, uning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, bosim va tahdidlardan muhofaza qilish huquqiy davlatning ajralmas belgisi sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, guvohlarning samarali himoyasi adolatli sudlovning amaliy kafolati hisoblanadi [13].

Xalqaro jinoyat huquqida guvohlarni himoya qilish instituti alohida huquqiy mexanizm sifatida rivojlangan. Masalan, International Criminal Court faoliyatida guvohlarning xavfsizligini ta'minlash maxsus bo'limlar orqali amalga oshiriladi. B.Swart ta'kidlashicha, xalqaro jinoyat sudlovida guvohlarni himoya qilish choralari adolatli muhokamaning sharti hisoblanadi va ularning ko'rsatmalariga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday omil bartaraf etilishi lozim [14]. Bu yondashuv guvohning huquqiy maqomini faqat protsessual normalar bilan emas, balki xalqaro standartlar bilan mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Jinoyat protsessi nazariyasida guvohning huquqiy maqomi uning protsessual huquqlari va davlatning majburiyatlari o'rtasidagi muvozanat orqali belgilanadi. A.Ashworth fikricha,

guvohning sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qilmaslik sudlov tizimining asosiy tamoyili bo'lib, uning xavfsizligini ta'minlash davlatning ijobiy majburiyati sifatida qaralishi kerak [15]. Bu nuqtai nazar inson huquqlari konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqaro standartlar doirasida guvohlarni himoya qilish masalasi inson huquqlari hujjatlarida ham aks etgan. Masalan, United Nations Office on Drugs and Crime tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalarda guvohlarni himoya qilish dasturlarining institutsional modellari bayon etilgan. Ushbu manbalarda guvohlarning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlash, identifikatsiya ma'lumotlarini o'zgartirish, vaqtincha joyini almashtirish kabi choralar samarali vosita sifatida e'tirof etiladi [16].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ayrim davlatlarda guvohlarni himoya qilish maxsus davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, United States Marshals Service tomonidan yuritiladigan "Witness Security Program" guvohlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, ushbu dastur jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan [17].

Yevropa davlatlari amaliyotida ham guvohlarni himoya qilish instituti keng rivojlangan. Council of Europe tomonidan qabul qilingan tavsiyalarda guvohlarni himoya qilishning minimal standartlari belgilangan. J. Spencer fikricha, guvohlarning maxfiyligini ta'minlash va ularga nisbatan tahdidlarning oldini olish sud muhokamasining adolatlilikiga xizmat qiladi [18].

Nemis huquqshunosligida B. Schünemann guvohlarni himoya qilish dasturlarini tahlil qilib, ularning huquqiy aniqligi va protsessual shaffofligi muhimligini ta'kidlaydi [19]. Uning fikricha, guvohlarni himoya qilishda davlat organlarining vakolatlari aniq belgilab qo'yilmasa, mazkur institut suiiste'mol qilish xavfiga duch kelishi mumkin.

Psixologik jihatdan qaraganda, L.Zedner guvohlarni himoya qilishni faqat jismoniy xavfsizlik bilan cheklash mumkin emasligini, balki ularning ruhiy barqarorligini ham ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi [20]. Sud jarayonidagi stress holati guvoh ko'rsatmalarining aniqligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, guvohning huquqiy maqomini himoya qilish uning psixologik qo'llab-quvvatlanishini ham o'z ichiga oladi.

Muxtasar qilib aytganda, guvohning huquqiy maqomini himoya qilish xalqaro va milliy huquq tizimlarida kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, guvohlarning xavfsizligi ta'minlanmas ekan, jinoyat sudlovining samaradorligi pasayadi. Shu bois mazkur institutni takomillashtirish, xalqaro tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va amaliy mexanizmlarni kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Muhokama. 1994-yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilinishi zamonaviy tarixiy davrda jinoyat protsessida guvohning protsessual pozitsiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Kodeksda jinoyat protsessi ishtirokchilari qatorida sud, ayblov tomoni, himoyachilar va boshqa ishtirokchilar bilan bir qatorda guvoh ham alohida subyekt sifatida ko'rsatilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi guvohning huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilab berdi, bu esa o'ziga qadar mavjud bo'lgan noaniqliklarni bartaraf etishda muhim qadam bo'ldi.

Ayniqsa e'tiborga loyiq bo'lgan islohot 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun orqali amalga

oshirildi. Ushbu Qonun orqali Jinoyat-protsessual kodeksning 66-moddasiga qo'shimchalar kiritilib, guvohning "advokatning yuridik yordamidan foydalanish, tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish hamda o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik" huquqlari aniq belgilandi. Kodeksga "Guvohning advokati" deb nomlangan yangi norma (66¹-modda) kiritilgani jahon amaliyotida nisbatan yangi bo'lgan yondashuvni aks ettiradi va guvoh huquqlarining himoyalashida sifat jihatidan yangi bosqichni belgilaydi[21].

Natija. 2019-yil 23-mayda qabul qilingan qonun orqali videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini o'tkazish tartibi (JPK 91¹–91⁴-moddalari) belgilandi. Bu innovatsiya guvohlarning huquqlarini mustahkamlash va ularning xavfsizligini ta'minlashda muhim texnologik qadam bo'ldi[22].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi guvohning protsessual pozitsiyasini tartibga soluvchi yagona qonun emas. 2019-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun guvohlarga nisbatan xavfsizlik choralari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish uchun mustaqil huquqiy asos yaratdi.

Biroq, mazkur Qonunning amaliyotdagi qo'llanilishi samaradorligi haqida munozaralar mavjud. Ayrim ekspertlarning fikricha, guvohlar himoyasi mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan va ularning amaliyotga joriy etilishi qiyinchiliklarga uchrayapti.

Qonunchilikda guvohning protsessual maqomi belgilanganda, ayrim shaxslar toifasi uchun guvohlik berishda imtiyozlar nazarda tutilgan. Bular qatoriga O'zbekiston Respublikasi sudyalari, sobiq Prezidentlar, diplomatik vakolatxona boshliqlari va a'zolari, shuningdek, konsullik muassasalari xodimlari kiradi.

Ushbu imtiyozlar tizimi bir tomondan xalqaro diplomatik an'analarga mos kelsa, ikkinchi tomondan qonun oldida tenglik prinsipini muayyan darajada cheklaydigan sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, mazkur imtiyozlarning qo'llanilish doirasi va shartlari aniq belgilanishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.11.2017-yildagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son va 10.08.2020-yildagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6041-son farmonlari qabul qilinib, jinoyat protsessida ishtirok etayotgan guvoh va boshqa ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini tushuntirmasdan olingan ko'rsatuvlaridan dalil sifatida foydalanish taqiqlandi, jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchining og'ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zarurati tufayli kechroq so'roq qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularning ko'rsatuvlarini gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, prokuror va advokatning iltimosiga ko'ra sud tomonidan taraflarning ishtirokida oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovanie) tartibi joriy qilindi, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan hollarda uni guvoh tariqasida so'roq qilish, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida guvohni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chiqartirish va so'roq qilish taqiqlandi.

Xulosa. O'zbekistonda guvoh institutining huquqiy maqomi shakllanishi va rivojlanishi jarayoni davom etmoqda. Mavjud yutuqlar bilan birga, yanada samarali huquqiy tizimni

bunyod etish uchun kompleks yondashuv va doimiy takomillashtirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, adolatli sud muhokamasini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Tahlil etilgan ilmiy manbalar, xorijiy tajriba va milliy qonunchilik amaliyotini qiyosiy o'rganish natijalari guvoh institutining huquqiy tartibga solinishida qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur muammolar guvohning protsessual maqomini to'liq va samarali ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda hamda uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

birinchidan, guvoh advokatining protsessual maqomi va vakolatlari amalda yetarli darajada aniq va kompleks tarzda tartibga solinmagan. Amaldagi normalarda advokatning guvohga huquqiy yordam ko'rsatish doirasi, uning ishtirok etish bosqichlari, tergov va sud jarayonidagi aniq vakolatlari, shuningdek, protsessual qarorlarga nisbatan munosabat bildirish imkoniyatlari to'liq konkretlashtirilmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida turlicha talqinlarga va bir xil bo'lmagan yondashuvlarga sabab bo'lmoqda. Natijada guvohning huquqiy himoyasi ayrim hollarda deklarativ xarakter kasb etib, amalda samarali kafolat darajasiga yetmay qolmoqda;

ikkinchidan, guvohlarni himoya qilish choralarining amaliyotdagi samaradorligi yetarli emasligi kuzatilmoqda. Qonunchilikda nazarda tutilgan muhofaza choralari (shaxsiy ma'lumotlarni maxfiy saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, ayrim hollarda yashash joyini o'zgartirish va boshqalar) mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llash jarayonida ma'muriy va byurokratik to'siqlar saqlanib qolmoqda. Ayrim hollarda muhofaza choralarini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishning murakkab tartibi va ortiqcha rasmiylashtirish talablari guvohning o'z vaqtida va to'liq himoya olishiga to'sqinlik qiladi. Bu holat guvohlarda davlat muhofazasi mexanizmlariga nisbatan ishonchning pasayishiga ham olib kelishi mumkin;

uchinchidan, videokonferensaloqa orqali guvohlik berish institutini qo'llash amaliyotida texnik va huquqiy muammolar mavjud. Raqamli texnologiyalarni jinoyat sudloviga joriy etish ijobiy tendensiya hisoblansa-da, videokonferensiya tartibining protsessual reglamentatsiyasi barcha jihatlar bilan mukammal ishlab chiqilmagan. Xususan, shaxsni identifikatsiya qilish, ko'rsatmaning ixtiyoriyligi va bosimdan holi ekanligini ta'minlash, aloqa uzilishlari yoki texnik nosozliklar oqibatida protsessual huquqlarning buzilishi kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda masofaviy guvohlik berish guvohlikning psixologik ta'sirchanligi va ishonchliligiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ilmiy munozaralar mavjud;

to'rtinchidan, guvohlarning o'z huquqlari haqida yetarli darajada xabardor emasligi amaliyotda huquqbuzilish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Ko'p hollarda guvoh protsessual maqomining mazmuni, uning huquq va majburiyatlari, javobgarlik choralari hamda huquqiy yordam olish imkoniyatlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Bundan tashqari, guvohlarga huquqiy yordam ko'rsatuvchi ayrim advokatlarning ixtisoslashuv darajasi va amaliy tayyorgarligi har doim ham yetarli emas. Bu esa guvoh huquqlarining sifatli va samarali himoya qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida guvoh institutining huquqiy maqomini tartibga solish sohasida amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari umumiy jihatdan ijobiy baholanishi mumkin. Qonunchilik bazasi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda, xalqaro standartlar milliy huquq tizimiga implementatsiya qilinmoqda. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etish va

guvoh huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish maqsadida rivojlangan davlatlar, jumladan Germaniya, Fransiya va AQSH tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, mazkur yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksiga guvoh advokatining huquqiy maqomi, vakolatlari va ishtirok etish tartibini batafsil belgilaydigan qo'shimcha normalar kiritish zarur. Ikkinchidan, guvohlik beruvchi shaxslarning o'z huquqlari haqida xabardorligini ta'minlash maqsadida protsessual kafolatlarni kuchaytirish, jumladan, huquqlarni tushuntirishning aniq va majburiy mexanizmlarini joriy etish lozim. Uchinchidan, videokonferensaloqa orqali guvohlik berish tartibini yanada takomillashtirish, uning texnik talablari va protsessual kafolatlarini huquqiy jihatdan aniq va mukammal tartibga solish talab etiladi. To'rtinchidan, guvohlar huquqlari sohasida ixtisoslashgan advokatlar korpusini shakllantirish va ularning malakasini muntazam oshirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, guvohlar uchun psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish, ayniqsa og'ir va ijtimoiy xavfli jinoyat ishlarida, guvohning ruhiy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Oltinchidan, guvohlarni himoya qilish choralarining samaradorligini baholash va tahlil qilish maqsadida doimiy monitoring hamda institutsional nazorat mexanizmlarini joriy etish zarur.

Shu tariqa, guvoh institutini takomillashtirish faqat normativ-huquqiy o'zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, institutsional, tashkiliy va amaliy choralar majmuini qamrab olishi lozim. Ana shundagina guvohning huquqiy maqomi to'liq ta'minlanib, adolatli sudlov prinsiplarining amaldagi ifodasi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 08.12.1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. O'zbekiston nashriyoti. 2023 y. 124 b.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 10.12.1948 y.
4. "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt. Nyu-York, 16.12.1966 y.
5. Roberts P. The Role of the Witness in Criminal Justice // Oxford Journal of Legal Studies. – 2019. – Vol. 39. – №. 2. – P. 215-232.
6. Fletcher G. Rethinking Criminal Law. – Oxford University Press, 2018.
7. Ashworth A. Principles of Criminal Law. – Oxford University Press, 2020.
8. Swart B. Witness Protection in International Criminal Law // International Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 21. – №. 3. – P. 345-362.
9. Bohlander M. International Criminal Justice: A Critical Analysis // Routledge. – 2022.
10. Jackson R. The Balance of Rights in Criminal Procedure // Criminal Law Review. – 2020. – №. 5. – P. 401-415.
11. Zedner L. Security and Human Rights // Cambridge Law Journal. – 2019. – Vol. 78. – P. 217-240.
12. Spencer J. Witness Protection and Fair Trial Standards // European Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 11. – P. 89-104.
13. Roberts P. Witness Evidence and Criminal Justice // Modern Law Review. – 2020. – Vol. 83. – №. 4. – P. 721-739.
14. Swart B. The Protection of Witnesses in International Criminal Law // International Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 21. – №. 3. – P. 345-362.
15. Ashworth A. Principles of Criminal Law. – Oxford University Press, 2020.
16. United Nations Office on Drugs and Crime. Good Practices for the Protection of Witnesses in Criminal Proceedings. – Vienna, 2022.

17. Fyfe N. Witness Protection and Organized Crime // Criminology & Criminal Justice. – 2019. – Vol. 19. – №. 5. – P. 589-604.
18. Spencer J. Witness Anonymity and Fair Trial Rights // European Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 11. – P. 89-104.
19. Schünemann B. Witness Protection Programs in Comparative Perspective // German Law Journal. – 2022. – Vol. 23. – P. 512-530.
20. Zedner L. Security, Risk and Criminal Justice // Cambridge Law Journal. – 2019. – Vol. 78. – P. 217-240.
21. “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-198son qonuni. 31.12.2008 y.
22. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-542-son qonun. 23.05.2019 y.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).